



RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA GULDAGI VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-avgust kuni raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish, yirik monopoliyalarni tiyib turish bo‘yicha qilinayotgan ishlar raqobat muhitiga ijobiy ta‘sir qilmoqda. Xususan, so‘nggi besh yilda 25 tadan ortiq tovarlar bo‘yicha raqobat muhiti yaxshilandi. 7 ta faoliyat turi bo‘yicha raqobatni cheklovchi eksklyuziv huquqlar bekor qilindi. Davlat ishtirokidagi korxonalar 42 foizga kamayib, tadbirkorlik subyektlari soni 1,6 barobar ko‘paydi.

O‘tgan yili “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasiga qo‘shimcha ta‘sirchan vakolatlar berildi. Shu asosida olib borilgan o‘rganishlarga ko‘ra, ayrim tashkilotlarda raqobatga zid qarorlar qabul qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish, savdoda ustun mavqedan foydalanish kabi holatlar bor.

Shu bois, sohadagi ishlar qamrovi va samaradorligini oshirish maqsadida Raqobatni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, bozorga kirishni erkinlashtirish, tadbirkorlarga teng sharoitlar yaratish bo‘yicha navbatdagi qadamlar belgilanadi.

Masalan, tadbirkorlik subyektlarining bozorlarga erkin kirishini qiyinlashtiruvchi normativ-huquqiy moddalar va ortiqcha talablar bekor qilinadi. Tartibga solish yukini

qisqartirishga qaratilgan yengilliklar joriy etiladi, jumladan, ruxsat beruvchi jarayonlar va litsenziyalar javobgarlikni majburiy sug‘urtalash bilan almashtiriladi.

Tabiiy monopoliya sohalarida mustaqil bozor regulatorylari joriy etiladi. Tabiiy monopoliya sohalari bilan o‘zaro bog‘langan va raqobatni rivojlantirish imkoniyati bo‘lgan tovar bozorlarida tabiiy monopoliya subyektlari ishtiroki cheklanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladigan davlat xaridlari ko‘lami qisqartirilib, davlat xaridlari raqobatli usullarga to‘liq o‘tkaziladi. Raqobatni cheklovchi individual xususiyatga ega davlat yordami, shu jumladan, eksklyuziv huquq, imtiyoz, preferensiya va yengilliklar bekor qilinadi.

Davlat organlari axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish orqali ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini shakllanishi zanjirining barcha bo‘g‘inlarini raqamli monitoring qilish yo‘lga qo‘yiladi. Raqobatga qarshi kelishuv va xatti-harakatlar, til birlashtirish holatlari haqida ma‘lumot taqdim etgan shaxslarni oshkor etmaslik va mukofotlash tizimi joriy etiladi.

Umuman, mazkur konsepsiya samarasida energetika, neft-gaz, suv xo‘jaligi, yo‘l qurilishi, temir yo‘l va aeroport xizmatlari kabi qator sohalarda 17 turdagi davlat monopoliyasini bosqichma-bosqich tugatish choralari ko‘riladi.

Davlat xaridlarida raqobatga zid harakatlarning oldi olinib, bu jarayonlarning shaffofligi ta‘minlanadi. Tovar-xomashyo birjalarda takliflar ko‘paytirilib, xaridorlarning tanlash imkoniyati kengaytiriladi.

Prezident sohadagi ishlarni davom ettirib, erkin bozor tamoyillarini ta‘minlash, kadrlar tayyorlash bo‘yicha qo‘shimcha topshiriqlar berdi. Iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, ayrim funksiyalarni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkazish kerakligi ta‘kidlandi. Tovar, moliya va raqamli bozorlarda raqobat holatini doimiy tahlil qilib, tartiblarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritib borish vazifasi qo‘yildi.

So‘nggi uch yilda joylarda 2 mingdan ortiq raqobatga zid hujjatlar aniqlangan. Ularning aksariyati mahalliy hokimliklar va vazirliklar tomonidan qabul qilingan. Shu bois, Raqobat qo‘mitasining hududiy boshqarmalari ishini jonlantirish, kadrlar malakasini oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shuningdek, qo‘mita faoliyatini jamoatchilikka ochiqlash va ommaviy axborot vositalarida yoritishni kuchaytirish kerakligi ham aytiladi. Bu qonun buzilishining oldini olish, shaffoflik va halollik muhitini shakllantirish nuqtayi nazardan muhim ekanini ta‘kidlandi.

O‘ZA

ICHKI YO‘LLARNI SAQLASH VA TA‘MIRLASHGA OID TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-avgust kuni ichki yo‘llarni saqlash va ta‘mirlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda jami 184 ming 582 kilometr avtomobil yo‘li bor. Shundan qariyb 142 ming kilometri ichki xo‘jalik yo‘llaridir.

So‘nggi to‘rt yilda ichki yo‘llarni qurish va ta‘mirlashga 15 trillion so‘m ajratilgan. Mahallalarda, chekka qishloqlarda ham ko‘chalar ravon bo‘lib, aholi farovonligiga xizmat qilmoqda. Lekin ularni saqlashga mas‘ul tizim yo‘q.

Chunki Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi davlat va xalqaro ahamiyatdagi yo‘l hamda ko‘priklar bilan shug‘ullanadi. Ichki yo‘l va ko‘priklar esa mahalliy hokimliklar

balansida. Hozirgi kunda 43 ming kilometr ichki yo‘llar ta‘mirtalab holatda, 2 ming 354 ta ko‘prikning “egasi” aniq emas.

Shu bois, tuman darajasida bu masalalarga mas‘ul tizim yaratish rejalashtirilmoqda. Taklifga ko‘ra, 208 ta tuman va shahar Obodonlashtirish boshqarmalarida ichki yo‘llarni saqlash xizmatlari tashkil qilinadi. Ular eng zarur 4 turdagi maxsus texnika bilan ta‘minlanadi. Buning uchun budjetdan tegishli mablag‘ ajratish ko‘zda tutilyapti.

Tahillarga ko‘ra, yo‘llarni saqlashga yo‘naltirilgan mablag‘

ta‘mirlash xarajatini bir necha barobar qisqartiradi. Agar o‘z vaqtida pul ajratilib, ichki yo‘llar to‘g‘ri ekspluatatsiya qilinsa, ularni ta‘mirlash muddatlari ham kamida 2 barobar uzayadi.

Shu bois, mutasaddilarga ichki yo‘llarni saqlash va ta‘mirlashni moliyalashtirish bo‘yicha yangi mexanizmlarni joriy etish borasida ko‘rsatma berildi. Aholi talabidan kelib chiqib, ichki yo‘llarni ta‘mirlash va yangilarini qurish ishlarni davom ettirish zarurligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston — Qozog‘iston:
MING YILLAR
QA‘RIDAN
NUR SOCHAYOTGAN
DO‘STLIK YOG‘DUSI



TARAQQIYOT ODIMLARI

SIRDARYODA YANGI TAJRIBA BO‘Y KO‘RSATMOQDA

Endi yog‘och granulalaridan foydalanib elektr olish mumkin

Tamaddun bir joyda turib qolmaydi. Dunyo yaratilganidan shunday: bugun yangilik sifatida hayratingizni oshirgan voqea ertaga yanada takomillashib, rivojlanib boraveradi. Aql, zakovat, qolaversa, hayot talabi insoniyatni yangi marralarga undayveradi, izlanishga chorlayveradi. Energetika sohasidagi jarayon xuddi shunday rivojlandi, takomillashdi va bugun ham jadal taraqqiy etmoqda.



Energiya ishlab chiqarishda asqatuvchi gaz, ko‘mir va neft zaxirasi kamayib borishi muqobil energetika manbalarini izlab topishga zamin yaratdi. Natijada

“yashil” energiya atalmish quvvat zaxiralardan foydalanish ko‘lami tobora kengayib bormoqda. Bu hozirgi shiddatli davr talabi. Ana shu shiddat O‘zbekiston

iqtisodiyoti va xalqimiz turmush sharoitida ham yaqqol kuzatilmoqda. Tabiiyki, sohaning kelajagi va hayotimizning ajralmas qismiga aylangan “yashil” energiya manbalariga talab ham oshyapti.

O‘zbekiston bu borada yangi tashabbus va loyihalarni ilgari surmoqda. Rivojlangan mamlakatlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni mustahkamlayapti. “Yashil” energetikadagi islohotlar natijasida hozirgacha ishga tushirilgan 2,4 gigavattli 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hisobiga joriy yilning olti oyida 1,6 milliard kilovatt “yashil” energiya ishlab chiqarildi.

Davomi 3-betda

Mulohaza

O‘QISHNI KO‘CHIRISH

Nega ko‘pchilik davlat oliygohlarida o‘qishni istaydi?

Mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha arizalar qabul qilindi. Amaldagi tartibga ko‘ra, jarayon 15-iyuldan 5-avgustga qadar davom etishi belgilandi. Qoidalar aniq, bu bo‘yicha takror eslab o‘tirishga hojat yo‘q, nazarimizda.

Jarayon davomida kimdir xorijdan o‘qishni ko‘chirish uchun hujjat topshirdi, kimdir esa oilaviy sharoitidan kelib chiqib, ya‘ni yurtimizning bir hududidan boshqa hududiga ko‘chgani sababli o‘qishni ham ko‘chirishga majbur. Biroq yana bir toifa borki, ular xususiy universitetlardan davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishni ko‘chirmoqchi bo‘lgan talabalar.

Aslida, davlat oliygohlari va xususiy oliygohlar mavzusi ancha katta hamda bahs-munozaralarga boy. Dunyodagi eng mashhur universitetlarning asosiy qismi xususiy. Ular faqatgina joylashgan mamlakatining qonunlariga rioya qiladi, ta‘lim jarayonini

esa mutlaq mustaqil tarzda belgilaydi, davlat ham ularni moliyaviy tomondan ta‘minlash majburiyatini olmaydi. Bunday holatda OTMlar o‘z kelajagi uchun o‘zi harakat qilishga majbur. Aks holda, yillar davomida yig‘ilgan obro‘sidan ham, ma‘naviy resurslaridan ham ajralib qolishi hech gap emas. Aynan shu harakatchanlik tufayli bu oliygohlar dunyoning turli burchaklaridan abituriyentlarni o‘ziga ohanraboday tortadi, ularda ta‘lim olish millionlarning orzusiga aylanadi. Ya‘ni ularga ishonch nihoyatda baland.

Davomi 5-betda

Nuqtayi nazar

HUDUDLAR BRENDI



3

Dolzarb mavzu

YASHIRIN IQTISODIYOT

IMKONIYATNI CHEKLAB, NOMUTANOSIBLIK KLAR KELTIRIB CHIQRADI

Turli davralarda hayotimizdagi o‘zgarishlar haqida fikr yuritamiz. Aytaylik, yashirin iqtisodiyot, xufiyona iqtisodiyot yoki noqonuniy iqtisodiyot to‘g‘risida har kimning o‘ziga yarasha tushunchasi bor. Hozir odamlar qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat‘i nazar, ko‘plab iqtisodiy terminlarni yaxshi o‘zlashtirib olgan. Eksport va import, inflyatsiya darajasi, tariflarni yuritish, foiz stavkalari, kreditlash kabi boshqa atamalar har bir davrada so‘zsiz aylanadi. Bular, tabiiyki, odamlarda iqtisodiy, huquqiy tushuncha ortib borayotganidan dalolat. Shularni inobatga olib, norasmiy, yashirin va noqonuniy iqtisodiyot to‘g‘risida fikr yuritishni maqsad qildik.

Bugun yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bilan bog‘liq qator muammolar mavjud. Yashirin iqtisodiyotning hajmi, tarmoq hamda sohalardagi ulushini statistik baholash dolzarb masala. U murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Binobarin, mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini shakllantirishda yashirin iqtisodiy faoliyat hisobga olinmasligi va unda ma‘lumotlar qamrovi to‘liqligi ta‘minlanmasligi

statistik ma‘lumotlardan foydalanishda qator noqulayliklarni yuzaga chiqaradi. Xususan, davlat boshqaruvi organlari uchun iqtisodiyot tarmoq va sohalarni rejalashtirish, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, xalqaro taqqoslashlarda ishtirok etish, aholi farovonligini aniqlash hamda bu borada ilmiy tadqiqotlar qilishda muayyan nomutanosibliklar kelib chiqadi.

Davomi 4-betda



TARAQQIYOT ODIMLARI

SIRDARYODA YANGI TAJRIBA
BO‘Y KO‘RSATMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Vazirlar Mahkamasi hamda Sirdaryo viloyati hokimligining tegishli qarorlariga muvofiq, Energetika vazirligi tomonidan Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida qishloq xo‘jaligi foydalanuvidan chiqarilgan sug‘orilmaydigan 1028 gektar yerda pavlovniya va boshqa tez o‘svuchan daraxtlar plantatsiyasi barpo etilgani, Namangan viloyatining Mingbuloq, Sirdaryo viloyatining Mirzaobod hamda Xorazm viloyatining Xiva tumanlarida pellet (yog‘och granula yoqilg‘isi) mahsulotini ishlab chiqarish loyihasi soha uchun katta yangilik bo‘ldi.

Qishni ko‘mirsiz o‘tkazish
mumkin...

Erta tongda bir necha hamkasblar bilan Sirdaryo tomon yo‘lga tushdik. Hali kunning taffi ko‘tarilmagan. Ketar ekamiz, borar manzilizim haqida tasavvur hosil qilish uchun bir-birimizni savolga tutamiz.

Yonimdagi hamkasbim:

— Bu tumanning Bahoriston degan joyiga ancha yillar oldin, kollelda o‘qib yurgan vaqtlarim paxta terish uchun borganman, — deya gap boshlaydi.

Suhbat orasida hududdagi yer foydalanishga yaroqsizligi, suvga talab yuqoriligi haqida ham aytib o‘tdi.

Nomidan kelib chiqib aytak ham Mirzacho‘lni o‘zlashtirib, obod qilish ortidan Mirzaobod tumani shakllantirilgan. Asosiy hududi sho‘r va yaroqsiz bo‘lgani bois, u yerda daraxt ekib, energiya olish mumkinligidan bir oz shubhalandim.

Tumanga yetganimizdan so‘ng u yerdan bizga yana bir necha kishi hamroh bo‘ldi. Bahoriston katta yo‘ldan 35 kilometr ichkarida joylashgan ekan. Biz ko‘zlagan manzil tomon borar ekanmiz, yo‘l yoqasida saksovullar, bizdan begonasirab tik qotgan yumronqozilarga duch keldik. Simyog‘ochlar ustiga uya qurgan laylaklar bu yerga o‘zgacha ko‘rk bag‘ishlab turibdi. Yo‘l chetida paxtazorlar va qamishzorlar ko‘zga tashlanadi.

Ko‘p o‘tmay, belgilangan joyga bordik. Atrofqa qarab yo‘l charchog‘i aridi. Sahroning qoq yuragida yashillikka burkangan go‘sha. Bir tomonda katta-katta ikkita quvurdan

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

daraxtlarni sug‘orish uchun hovuzga suv oqib turibdi.

“Bio-pellet” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari Abror Hoshimovning aytishicha, pavlovniya o‘simligini ekish uchun aynan Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumani tanlanishiga sabab — joy kengligida. Yillar davomida foydalanilmay qolgan yer pavlovniya daraxti orqali o‘zlashtiriladi.

Xo‘sh, nima uchun aynan pavlovniya? Hech kimga sir emas, gaz, ko‘mir, neftga asoslangan issiqlik elektr stansiyalari, zavod va fabrikalar chiqarayotgan zaharli gaz oqibatida ozon qatlami yemirilishi tezlashmoqda. Bugun jahonda sodir bo‘layotgan suv toshqinlari, o‘rmon yong‘inlari sonining organi, shaharlar havosi ifloslanishi, turli kasalliklar ko‘payishi bejiz emas. Bunday global vaziyatda insoniyat oldida energiyaga ehtiyojni ekologiyaga zarar yetkazmaydigan, muqobil mahsulotlar orqali ta‘minlash vazifasi turibdi. Mirzaobod tumanidagi pavlovniya plantatsiyasi ham shu maqsadda tashkil etilgan.

Loyihaga o‘lgan yilning kuzidan kirishilgan. Kelgusi yil nihoyasiga yetkaziladi. Natijada aholi ham, sanoat korxonalari ham, hatto issiqlik elektr stansiyalari ko‘mir bilan mazut o‘rniga pellet yoqib, elektr energiyasi ishlab chiqarishi mumkin. Mahsulot ko‘mirga nisbatan ekologik toza bo‘lib, afzalligi ham shunda.

Nuqtayi nazar

Abdusattorjon
ABDUMINOV,
Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti
ilmiy xodimi

Aslida, odamzod tabiati sayru sayohatga moyil. Shu bois, ozgina mablag‘ va vaqt topgan inson borki, dunyo kezhishga intiladi. Bu esa mamlakatlar uchun katta imkoniyat va uni yuzaga chiqarishning turli ko‘rinishlaridan samarali foydalaniladi. Bunda hududlarning o‘ziga xos brendini yaratish katta ahamiyatga ega.

Rasmiy hujjatlarda “hududiy brending” deya ataluvchi mazkur usul shahar yoki

Har bir jamiyat rivoji, ma’naviy qiyofasi shakllanishi uchun insonlar iqtisodiy tomondan ancha ko‘tarilishi zarur. Bu loyiha ortidan kimdir farzandining ta’lim olishiga zamin yaratrsa, yana kimdir yashash uchun yaxshi sharoit hozirlaydi. Marra qancha katta olinsa, qamrovi shuncha kengayadi.

Sanoat uchun eng qulay
xomashyo

Daraxt ekib, bog‘ yaratish egulik va ulug‘vorlik ramzidir. Ayniqsa, xalqimiz orasida daraxt ekish qadrlanadi. Har ishing o‘ziga yarasha mashaqqati bo‘lganidek daraxt parvarishlashning ham sir-sinoati bor. Ayniqsa, sho‘r va tuproq unumdorligi juda past joylarda bu ishing mashaqqati ikki karra oshadi.

Dunyodagi eng tez o‘svuchi daraxt haqida eshitgan inson borki, pavlovniyaning noyob xususiyatlari, qanday sharoitda rivojlanishiga, albatta, qiziqadi. So‘nggi yillarda qulog‘imizga nomi ko‘p chalinyotgan bu daraxt yurtimiz iqlim sharoitiga ham moslashtirilib, undan kerakli maqsadlarda foydalanilmoqda.

Plantatsiyalar uchun ko‘chat yetkazib berish, ekish hamda parvarishlash bilan bog‘liq yumushlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash maqsadida mazkur yo‘nalishda yetarlicha tajribaga ega “Dripflex” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bilan shartnoma tuzilgan.



Shartnomaga muvofiq, ajratilgan yerga 2 million 914,4 ming tup (*shundan 800 gektarga 2 million 666,4 ming tup kaliforniya teragi hamda 200 gektarga 250 ming tup pavlovniya*)

tez o‘svuchi ko‘chat ekilishi va tomchilatib sug‘orilishi ko‘zda tutilgan. MCHJ 2025-yil oxirigacha bu ishlarni nihoyasiga yetkazishni rejalashtirgan.

Endi o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: pavlovniya o‘simligi bizning iqlimga qanday moslashtirilmoqda, uni parvarishlash jarayonida nimalarga e‘tibor berish kerak?

— Bugun Mirzaobod tumanida plantatsiya tashkil qilish uchun ajratilgan yerdan 157 gektarga pavlovniya, 216 gektarga kaliforniya teragi ekildi, — deydi MCHJ ish boshqaruvchisi Komilxon Saidov. — Qolgan qismiga kuzgi va bahorgi mavsumda ko‘chat ekiladi. Asosiy vazifamiz — ko‘chat ekish hamda parvarishlash. Bu daraxt tanasi yana ham mustahkam va baquvvat o‘sishi uchun ikki yil davomida tubidan kesiladi. U kechasi sug‘oriladi. Sababi, suv sovuq bo‘lishi kerak. 5-6 yilda ishlab chiqarishga tayyor bo‘ladi. Bugun mamlakatimizda uning Shan Tong turi yetishtirilmoqda. Mazkur tur boshqalariga qaraganda iqlimimizga mos. Sovuqqa, issiqqa,



qurg‘ochchilikka, kasalliklarga chidamli, tanasi to‘g‘ri va tez o‘sadi.

Yana bir jihati — mahsulodorigi yuqori hamda sifatli. Kesilgandan so‘ng tez qayta o‘sish

xususiyati bilan ajralib turadi. U gullaganda asalarilar uchun yaxshigina asal manbai bo‘ladi. Xushbo‘y hidli. Gullidan kosmetika sanoatida keng foydalaniladi, iforidan atir olinadi. Yana pavlovniya guli boshqa daraxtlarniki singari allergiya qo‘zg‘atmaydi. Gullash mavsumida o‘zidan po‘panak chiqarib, atrofini bulg‘amaydi.

Pavlovniya bargi juda katta bo‘lib, odatda 70 santimetr gacha yetadi. Yaproq yozganida jaziramada soya-salqin beradi. Sovuq tushganida esa barcha daraxt singari bargini yerga tashlaydi. Ishning ko‘zini biladigan chorvador barglarni darhol yig‘ib olib, quritadi-da, chorvaga to‘yimli ozuqa sifatida beradi. Bundan tashqari, daraxt bargi hamda shox-shabbalaridan to‘plangan chiqindidan ko‘p miqdorda bioyoqilg‘i olish mumkin. U hudud tabiati musaffoligiga ham hissa qo‘shadi. Namgarchilik ortib, havo tozalanishiga zamin yaratadi.

Xullas, loyiha ortida energiya olish bilan birga boshqa maqsadlar ham bor. Qolaversa,

o‘z vaqtida beriladi. Avvaliga bu loyiha amalga oshishi, sho‘rlangan joyda daraxtlar o‘sishiga shubha bilan qaraganimiz. Sababi, bu yerni faqat saksovol, sho‘ra va yantoq bosib yotgan edi. Loyihaning ishga tushishi juda ko‘p odamlarga yordam bo‘ldi. Shuning ortidan bolalarimizning yaxshi ta‘lim olishi uchun shart-sharoit yaratyapmiz.

Har bir jamiyat rivoji, ma’naviy qiyofasi shakllanishi uchun insonlar iqtisodiy tomondan ancha ko‘tarilishi zarur. Bu loyiha ortidan kimdir farzandining ta‘lim olishiga zamin yaratrsa, yana kimdir yashash uchun yaxshi sharoit hozirlaydi. Marra qancha katta olinsa, qamrovi shuncha kengayadi.

— Bugun loyiha faqat Sirdaryo viloyati bilan chegaralanib qolgani yo‘q. Pellet mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qurilmalarni hozircha Xorazm viloyatining Xiva, Namangan viloyatining Mingbuloq tumanlariga o‘rnatish reja qilingan, — deydi “Bio-pellet” MCHJ rahbari Abror Hoshimov. — Hozirgacha pellet ishlab chiqariladigan 2 ta qurilma keltirilib, o‘rnatildi.

Plantatsiyani sug‘orish tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilganidan so‘ng mahalliy aholi bandligini ta‘minlash maqsadida har bir oilaga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va daromad manbai yaratish uchun 1 gektargacha yer ajratib beriladi. Odamlar daraxt ko‘chatlari orasida mosh, loviya singari dukkakli o‘simliklar, qovun, tarvuz, oshqovog‘ kabi poliz mahsulotlari yetishtirishi mumkin.

Aksariyat hollarda qurilish uchun yog‘och mamlakatimizga chetdan kirib keladi. Bu loyiha amalga oshsa, keyinchalik qamrov yana ham kengayib, qurilish uchun yog‘och bilan ichki bozorni ta‘minlash, hatto eksport qilish mumkinligi aytilmoqda. Tasavvur qiling-a, bir vaqtlar cho‘l, unumsiz bo‘lgan hududda o‘rmon shakllanadi. Buning ta’siri ekologiyaga ham seziladi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun tabiatni asrash, muqobil energiya tizimini kengaytirish borasida samarali ishlar qilinmoqda. Bu ishlar ortida quydagi ezgu maqsadlar mujassam — aholi turmush tarzini yaxshilash, bandligiga ko‘maklashish, energiyaga talabini to‘liq qoplash.

Kelajak energiyasi

Mamlakatimizda “yashil” energiya man-balarini shakllantirish bo‘yicha boshlangan ishlar izchil davom ettirilmoqda. Buning natijasida 2026-yilga borib, O‘zbekistonda umumiy quvvati 5000 megavatt, 2030-yilga borib esa 18 ming megavattidan ortiq bo‘lgan quyosh va shamol elektr stansiyalari ish boshlaydi. 2030-yilga borib, O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiasining 40 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning natijasida yiliga qariyb 15 milliard kub metr tabiiy gaz tejalisiga erishiladi. Bundan tashqari, atmosfera 21 million tonna zararli gaz chiqarilishining oldi olinadi.

Shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 3 gigavatt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilish orqali tabiiy talab qisqartirish, issiqxona gazining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foiz qisqartirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Strategiyada belgilangan ushbu vazifalardan kelib chiqib, joriy yilga mo‘ljallangan Davlat dasturi asosida 2024-yilda yurtimiz mo‘ylab qo‘shimcha 2500 megavatt quvvatli quyosh fotoelektr hamda shamol elektr stansiyalari, shuningdek, mikro va kichik GESlar ishga tushiriladi. Ularning ba‘zilari foydalanishga topshiriladi ham. Muhimi, sohaga yangicha yondashuv hamda loyihalar ijrosidotiymiz ravnaqi va xalq farovonligiga xizmat qiladi.

Sirdaryoning Mirzaobod tumanidagi loyiha esa ana shu ezgu maqsadlarga munosib hissa qo‘shishi bilan ahamiyatlidir. Ya’ni bu yerdagi 1028 gektar maydonda parvarishlanayotgan pavlovniya o‘simligi va shunga o‘xshash tez o‘svuchi daraxtlar yog‘ochi yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarish tajribasi yo‘lga qo‘yiladi.

Odamlar bandligi
ta‘minlanmoqda

Bir tashabbus ortida minglab insonlar taqdiri yotadi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun Bahoriston hududida 4 mingga yaqin fuqaro bor. Ularning tirikchiligi, asosan, chorvachilikdan. Yer unumdorligi pastligi uchun odamlar tomorqasidan samarali foydalana olmaydi.

Loyiha doirasida mavsumda 400 nafardan 600 nafargacha ishchi kuchi jalb etildi. Bugun doimiy ish o‘rni 60 dan oshiq.

— Bu loyiha ishga tushganidan beri shu yerda mehnat qilyapman. Biz qatori mahallamizning aksariyat kishilari ham ish bilan ta‘minlandi. Barcha sharoit yaratilgan, — deydi mahalliy ishchilardan Lola Allamurodova. — Oyligimiz

Shunga qaramay, hali bu borada foydalanilmayotgan imkoniyatlarimiz ancha-gina. Aytaylik, bugun ko‘pchilik Qizilqum cho‘lida “Dinozavrlar qiroli” qoldiqlari topilganidan bexabar. Vaholanki, ular hatto tirannozavrlardan ham yirik mavjudot bo‘lgan. Mazkur turning nomida “Ulughbegsaurus uzbekistanensis” mavjudligi dinozavrlarning mintaqamizga aloqadorligini bildiradi va ulardan marketing kompaniyasi sifatida foydalanishga imkon yaratadi. Ya’ni ular aks etgan hudud logotipi ishlab chiqilib, dinozavrlar mavzusidagi ko‘ngilochar muassasalar (parklar, muzeylar va boshqalar) tashkil

etilsa bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologik imkoniyatlardan foydalangan holda dinozavrlar shaklida dronlar shousini va rangli gologrammalar ko‘rinishidagi vizual ko‘rgazmalarni ham o‘tkazish mumkin.

Surxondaryo viloyatining go‘zal tog‘ manzaralari mamlakatimizga tashrif buyuruvchilarning e‘tiboridan chetda qolmoqda. Bunda “Yodel Ay Hee Hoo” kompaniyasi strategiyasini qo‘llash orqali Samarqand va Toshkent aeroportlarida chet ellik sayyohlarni Surxondaryo qishloqlariga chaqirish mumkin. Ya’ni qishloqda yashovchi odam sayyohlar bilan onlayn subhatga kirishadi va real vaqt rejimida hudud manzarasini ko‘rsatib ularni jalb qiladi. Umuman, bu usul qishloqlarda etnografik turizmni rivojlantirishda, sayyohlarni xonadonlarga mehmonga chorlash orqali madaniyat bilan tanishtirishda qo‘l keladi.

Buxoro bebaho me‘moriy merosi tufayli o‘zini “Yuz gumbazli shahar” sifatida tanitishi mumkin. Qadimiy shahar inshootlari orasida Chor Minor madrasasi, Poi Kalon majmuasi, Mir Arab madrasasi kabi tarixiy boyliklarimiz bor. Shaharning islom dunyosidagi ahamiyatini namoyish etuvchi videomateriallarni ko‘paytirish va ularni xalqaro tomoshabinbop kanallar orqali tarqatish yaxshi samara beradi. Bu bilan mazkur shahar har bir musulmon hayotida kamida bir marta ziyorat qilishi kerak bo‘lgan ziyoratgoh manzil sifatida yanada mashhur bo‘ladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida yurtimizga xorijiy sayyohlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladiganlar sonini 3 millionga oshirish ko‘zda tutilganini inobatga olsak, bu boradagi ishlar ko‘laminii kengaytirish hayotiy zaruratga aylanishi lozim.

HUDUDLAR BRENDI

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yilning olti oyida O‘zbekistonga 3,5 milliondan ortiq chet ellik turistik maqsadda tashrif buyurgan. Bu raqam o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 415,6 mingta yoki 13,3 foiz oshgani e’tiborga liq. Chunki turizm nafaqat mamlakatni tanitishda, balki iqtisodiyot rivoji va odamlar daromadida oshishida ham katta ahamiyat kasb etadi.

mamlakatlarning eng raqobatbardosh jihatlarini aniqlash va uni sayyohlar uchun o‘ziga xos turistik yo‘nalish sifatida taqdim etish amaliyotidir. Sodda aytganda, u muayyan joyning tabiiy yoxud madaniy ajratib turadigan xususiyatlarini targ‘ib qiluvchi tasvirni yaratish hisoblanadi.

Hududlar brendingida ijodkorlik muhim o‘rin tutadi. Sababi, mavjud salohiyat rivojlantirish va targ‘iborga muhtoj. Bu orqali yangi diqqatga sazovor joylar ochilib, butun dunyoga ovoza qilinadi. Ishga qanchalik ijodiy yondashilsa, u odamlarning sayohat qilish manzilini tanlashdagi qaroriga shunchalik kuchli ta’sir qiladi. 2022-yilda 900 milliondan ortiq sayyoh xalqaro sayohatlarni amalga oshirgani va xalqaro turizm daromadlari 1 trillion AQSH dollariga yetgani buning tasdig‘idir. Tashrif buyuruvchilar soni ortib borishi mehmonxonalar, restoranlar, tashuvchilar,

do‘konlar va boshqa mahalliy tadbirkorlik subyektlari daromadlarini oshirish orqali hududning iqtisodiy o‘sishiga ta’sir qiladi. Bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Jumladan, AQSHning Janubiy Dakota hududida joylashgan Rashmor tog‘i eng diqqatga sazovor manzillardan bo‘lib, uning bir tomonida ushbu mamlakatning to‘rt Prezidenti qiyofasi aks ettirilgan. Mana shuning o‘zi yiliga ikki milliondan ortiq sayohatchini jalb qiladi.

Shimoliy Irlandiyada mashhur “Taxtlar o‘yini” filmi suratga olish jarayonida qulagan daraxtlardan o‘nlab naqshinkor eshiklar yasilib, mamlakat bo‘ylab o‘rnatilishi ortidan “Eshiklar sayohati” deb nomlangan yangi sayyohlik yo‘nalishi yaratilgan.

Albatta, yurtimiz tabiati betakror. O‘zbekistonning qator hududlari dunyoga mashhur. Xususan, Namangan dunyoga “gullar shahri” sifatida o‘zini namoyon qilgan bo‘lsa,



Qonun bilan taqiqlangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va saqlash faoliyati noqonuniy iqtisodiyotni ifodalaydi. Tegishli ruxsatnomasiz ishlab chiqarish faoliyati ham noqonuniy iqtisodiyot sifatida qayd etiladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri ahamiyatsiz darajada kichik bo'lgani sababli noqonuniy iqtisodiy faoliyat aksariyat davlatlarda statistik baholanmaydi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

YASHIRIN IQTISODIYOT

imkoniyatni cheklab, nomutanosibliklar keltirib chiqaradi



Bahodir BEGALOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Yashirin iqtisodiyot davlat budgetiga tushum kamayishi, biznes subyektlari o'rtasidagi erkin raqobat muhiti buzilishi hamda iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar va aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatini cheklaydi. Shu bois, jahonda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish, unga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun, birinchi navbatda, yashirin iqtisodiyot hajmini imkon qadar aniqroq statistik baholash zarurati yuzaga keladi.

Prezidentimizning 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 24-martdagi "Jahon banki ishtirokidagi "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 16-yanvardagi "Yashirin iqtisodiyotga

xizmatlar hajmi **norasmiy iqtisodiyot** sifatida hisobga olinadi. Uy xo'jaliklarining o'z iste'moli uchun ishlab chiqargan mahsuloti ham norasmiy iqtisodiyot sifatida qayd etiladi.

Soliqlardan qochish, qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilmaslik maqsadida statistika va soliq organlariga taqdim etiladigan hisobotlarda to'liq yoki qisman yashirib ko'rsatilgan faoliyat ko'rsatkichlari ham yashirin iqtisodiyotni ifodalaydi. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda faoliyat yurituvchi korxonalarning ishlab chiqarish hajmi ham yashirin iqtisodiyotga kiritiladi.

Qonun bilan taqiqlangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va saqlash faoliyati **noqonuniy iqtisodiyotni** ifodalaydi. Tegishli ruxsatnomasiz ishlab chiqarish faoliyati ham noqonuniy iqtisodiyot sifatida qayd etiladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri ahamiyatsiz darajada kichik bo'lgani sababli noqonuniy iqtisodiy faoliyat aksariyat davlatlarda statistik baholanmaydi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholashning xalqaro amaliyotda **bevosita** va **bilvosita** usullari mavjud.

Iqtisodiyot subyektlari bilan o'tkaziladigan tanlanma statistik kuzatuvlar natijalari asosida norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash **bevosita usullaridir**.

Mehnat sarfi, resurslar, tovarlar oqimi kabi bilvosita ma'lumotlar asosidagi hisob-kitoblar va tahlillarga tayanadigan usullar **bilvosita usullar**.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda "Ko'p ko'rsatkichlar — ko'p sabablar" kabi ekonometrik modellashtrish usullaridan ham keng foydalaniladi. Bu model yashirin o'zgaruvchilarning statistika nazariyasiga asoslangan tuzilmaaviy tenglamalarni modellashtrish usuli va norasmiy faoliyatning ko'proq tarkibiy qismlarini qamrab olish uchun bir nechta ma'lumotlar manbalaridan foydalanadi. Ushbu model norasmiy iqtisodiy faoliyatning hajmi va

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat

	Trln so'm			YIMga nisbatan % da		
	2017	2020	2023	2017	2020	2023
Jami YIM	356,5	668,0	1 192,2	100,0	100,0	100,0
Rasmiy iqtisodiyot	195,7	414,9	769,3	54,9	62,1	64,5
Kuzatilmaydigan iqtisodiyot	160,7	253,2	422,9	45,1	37,9	35,5
<i>shu jumladan:</i>						
Norasmiy iqtisodiyot	134,8	206,9	323,3	37,8	31,0	27,1
Yashirin iqtisodiyot	25,9	46,3	99,6	7,3	6,9	8,4

ovqat mahsulotlari va xizmatlarga qilgan xarajatini statistik kuzatishlarga asoslangan **iste'mol usulidan** foydalanish olingan natijalarning haqqoniylik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Undan amaliyotda keng foydalanish kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi aholining jami xarajati to'g'risidagi ma'lumotlar va pulli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha rasmiy statistika hisobotlari ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar asosida aniqlanadi.

Aksariyat mamlakatlar tajribasida norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholashda turli usullardan foydalaniladi. Maxsus statistik kuzatuvlar o'tkazish, soliq tekshiruvi hamda mehnat bozori ma'lumotlaridan foydalanish shular jumlasidan.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha ko'rsatkichi

— yakka tartibdagi uy-joylar va xo'jalik binolari (molxona, tandirxona, hammom va boshqalar)ni qurish hamda ta'mirlash bo'yicha uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga va mehnat resurslariga xarajati jismoniy shaxslar tomonidan obyektlar qurilishi hisoboti (choraklik) asosida qamrab olinadi;

— tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning sataroshlik, go'zallik saloni, taksi, yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash, repetitorlik va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyati bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar kuzatuvlari hamda shaxsiy avtotransport egalariining tashish faoliyati kuzatuvlari (choraklik) asosida qamrab olinadi;

— bozorlar va boshqa savdo nuqtalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva, parranda



Statistik hisob-kitoblar natijasida YIM hajmining o'zgarish dinamikasi, milliard AQSH dollarida

bo'yicha davlatlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Bunda MDH davlatlarida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 30-50 foizga yetsa, Yevropa mamlakatlarida 5-20, boshqa rivojlangan mamlakatlarda esa 5-15 foizni tashkil etadi.

Statistika agentligi tomonidan yillik statistika dasturiga muvofiq norasmiy iqtisodiyotni statistik baholash amaliyoti keng joriy qilingan. Mazkur baholash uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish faoliyatini o'rganish bo'yicha quyidagi tanlanma statistik kuzatuvlar natijalari asosida amalga oshiriladi:

— uy xo'jaliklari ixtiyoridaagi qishloq xo'jaligi ekini maydoni, chorva hamda parranda bosh soni, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi dehqon xo'jaliklari hisoboti (choraklik) asosida qamrab olinadi;

— uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar tomonidan tayyorlangan go'sht, sut, un,

hamda oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati savdo bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar kuzatuvlari (choraklik), qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslar kuzatuvlari (oylik), chorva mollari va parrandalarni sotuvchi jismoniy shaxslar kuzatuvlari (choraklik) asosida qamrab olinadi.

Norasmiy iqtisodiyotni statistik baholashda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi va Transport vazirligi ma'muriy ma'lumotlaridan ham keng foydalaniladi.

Shuningdek, norasmiy iqtisodiyotni statistik baholash natijalari yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmi tarkibida aks ettirib boriladi.

Statistika agentligi tomonidan kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini statistik baholash uslubiyati va amaliyotini takomillashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda statistik tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, 2020-2024-yillarda norasmiy va yashirin iqtisodiy faoliyatni baholash bo'yicha Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari bilan o'zaro hamkorlikda qator ishlar bajarildi:

— respublikamiz hududida kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholashni takomillashtirish maqsadida Xalqaro valyuta


jamg'armasining texnik ko'mak missiyalari jalb etildi;

— yuridik va jismoniy shaxslarning norasmiy va yashirin faoliyatini o'rganish bo'yicha maxsus so'rovnomalari ishlab chiqildi;

— kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom tayyorlandi;

— Qashqadaryo (2020-yilning avgust-sentabr oylari) va Namangan (2021-yilning may-avgust oylari) viloyatlarida yuridik va jismoniy shaxslarning norasmiy va yashirin faoliyatini o'rganish bo'yicha tanlanma statistik kuzatuvlar o'tkazildi;

— Xalqaro valyuta jamg'armasi



Statistik hisob-kitoblar natijasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushining o'zgarishi: 2023-yil, foizda


ekspertlari tavsiyalari, Kanada va Gruziya tajribasi asosida uy xo'jaliklarining transport, yashash va ovqatlanish, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari uchun xarajatini o'rganish bo'yicha tanlanma statistik kuzatuv so'rovnomalari ishlab chiqildi;

— O'zbekiston Respublikasining 165 ta tumani bo'yicha uy xo'jaliklarida transport, yashash va ovqatlanish, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga xarajatlarni o'rganish maqsadida tanlanma statistika kuzatuvlari o'tkazildi;

— tegishli vazirlik va idoralar (Soliq qo'mitasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi)dan ma'muriy ma'lumotlar olinib, tahlil qilindi;

— tanlanma statistik kuzatuvlar orqali yig'ilgan ma'lumotlar asosida 2017-2023-yillar uchun iqtisodiyot tarmoqlari va respublikamiz hududi bo'yicha norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi hamda uning YIMga ta'sirini baholash ishlari bajarildi;


— Xalqaro valyuta jamg'armasining texnik ko'mak missiyasini keng jalb etgan



Statistik hisob-kitoblar natijasida YIM o'sish sur'atining o'zgarishi, foizda

holda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri bo'yicha statistik hisob-kitoblar natijalari keng muhokama qilindi (1-jadval).

Statistik baholash yakunlari bilan O'zbekiston Respublikasi YIM hajmiga



Statistik hisob-kitoblar natijasida aholi jon boshiga YIM hajmi o'zgarishi, AQSH dollarida

2023-yilda 125,6 trillion so'mlik qo'shimcha aniqlik kiritgan holda statistik hisob-kitoblar qilindi. Natijada uning amaldagi hajmi 1 kvadrillion 66,6 trillion so'mdan 1 kvadrillion 192,2 trillion so'mga ortdi.

2017-yil uchun YIM hajmi 7,4 milliard AQSH dollariga qo'shimcha baholandi va u 62,2 milliard dollardan 69,6 milliard dollarga oshdi.


2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi YIM hajmi AQSH dollari ekvivalentida 10,7 milliard dollarga qo'shimcha baholandi va u 90,9 milliard dollardan 101,6 milliard dollarga ortdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YIM hajmi 2023-yilda 3,4 million so'm miqdorida qo'shimcha aniqlik kiritilgan holda statistik hisob-kitob qilindi va u amaldagi 29,3 million so'mdan 32,7 million so'mga ortdi.

2017-yil uchun aholi jon boshiga YIM hajmi 229 AQSH dollari miqdorida qo'shimcha baholandi va u 1921 dollardan 2149 dollarga oshdi.

2023-yil uchun aholi jon boshiga YIM hajmi AQSH dollari ekvivalentida 294 dollar miqdorida qo'shimcha baholandi va 2496 dollardan 2789 dollarga ortdi.

Statistik hisob-kitoblar natijasida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YIMdagi ulushi 2023-yilda 27,9 foizdan 35,5 foizga oshdi. Ushbu ko'rsatkich mamlakatimiz sanoat tarmog'ida 3,7 foizdan 9,6 foizga, qurilish tarmog'ida 20,5 foizdan 41,4 foizga va xizmatlar sohasida 27,2 foizdan 39,2 foizga oshgan.



Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarkibiy qismlari

qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2024-yil 8-iyuldagi "Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlarida belgilangan vazifalar mazkur masalaning qanchalik muhimligidan dalolat beradi.

Statistika sohasida faoliyat yurituvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda ishlab chiqarish chegaralari doirasidagi barcha iqtisodiy faoliyat turlarini ularning ro'yxatdan o'tgan yoki o'tmaganligi, qonuniy yoki noqonuniyligi, ma'lumotlar manbai mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, qamrab olishni tavsiya etadi.

Dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari — BMT, Yevropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Jahon banki guruhi tomonidan ishlab chiqilgan "Milliy hisoblar tizimi-2008" qo'llanmasiga muvofiq **kuzatilmaydigan iqtisodiyot** doimiy statistik kuzatuvlarda to'liq yoki qisman qamrab olinmagan. Shuningdek, statistik ko'rsatkichlarda aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyatni ifodalaydi va ishlab chiqarish chegarasiga kiritiladi.


O'z navbatida, kuzatilmaydigan iqtisodiyot **norasmiy, yashirin va noqonuniy iqtisodiy** faoliyat turlari bo'yicha guruhlariga ajratiladi.

Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan

rivojlanishini ifodalovchi dinamik qatorlarini tuzish imkonini beradi.

Yashirin iqtisodiyot hajmini baholashda yagona umumiy uslubiyat mavjud emasligi har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda biror-bir usuldan yoki turli usullarni umimlashtrigan holda foydalanishni taqozo etadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini to'g'ridan to'g'ri o'rganish imkonini beruvchi bevosita korxona va tashkilotlar yoki uy



Statistik hisob-kitoblar natijasida YIM hajmining o'zgarish dinamikasi, trillion so'mda

xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma statistik kuzatuvlar usuli xalqaro amaliyotda eng keng tarqalgan.

Iste'molchining o'z xarajati haqidagi ma'lumotlarini yashirish ehtimoli pastligi sababli uy xo'jaliklarining oziq-ovqat, nooziq-

qandolat, vino, to'qimachilik mahsulotlari, sabzavot hamda meva konservasi, quritilgan sabzavot, meva, poyabzal, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlar hajmi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar kuzatuvlari (choraklik) asosida qamrab olinadi;



Mulohaza



O‘QISHNI KO‘CHIRISH

Nega ko‘pchilik davlat oliygohlarida o‘qishni istaydi?

Boshlanishi 1-betda

Biroq mamlakatimizda tashkil etila boshlaganiga hali ko‘p bo‘lmagan xususiy oliy ta‘lim muassasalarining hammasi ham yurtdoshlarimiz ishonchini to‘la qozona oldi, deya olmaymiz. Sababi, ularning aksariyati faoliyatida faqatgina moddiy manfaatni birinchi o‘ringa qo‘yib olganki, “abituriyentbay” tartibda mijoz jalb qilayotgani haqidagi gap-so‘zlar tez-tez qulog‘imizga chalinayotir. Bu esa ularga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarmoqda. Aslida, tabiiy hol. Chunki hech kim o‘zi ishonmagan muassasa bilan hamkorlik qilishni istamaydi.

Xususiy oliyoghlarning ko‘pchilikka manzur bo‘ladigan bir jihati bor — ularga kirish nisbatan oson. Aynan shu omil aksariyat xususiy oliyoghlarning yashovchanligini ta‘minlab kelyapti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususiy oliyoghlarning ko‘payishi bilimiga ishonmagan abituriyentlar uchun o‘ziga xos “formula” yaratdi. Ayrim yoshlar “Hech bir imtihonsiz xususiy universitetlardan biriga kirib olaman hamda bir yil o‘qib, davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishni ko‘chiraman”, degan reja tuzadi. Qarabsizki, oxirida davlat oliyoghiga yuqori ball olib kirgan talaba bilan bir xil diplomga ega bo‘ladi. Oliy ta‘lim muassasalari orasidagi o‘qishni ko‘chirish uchun ham test imtihonlari joriy etilishi bu oqimni sezilarli kamaytirdi, biroq shu holatda ham kirish ballaridan o‘qishni ko‘chirish imtihonlari ballari pastroq bo‘lishi “formula”ning dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Talabalarining xususiydan ko‘ra, davlat oliyoghlari o‘qishga ko‘proq qiziqishi to‘lov miqdori bilan ham bog‘liq. Xususiy oliyoghlardagi to‘lov-kontrakt summalari bugungi kunda o‘rtacha 12 million so‘mdan boshlanadi. Davlat oliy ta‘lim muassasalaridagi eng talabgir yo‘nalishlarda esa kontrakt miqdori stipendiyasiz 7 million so‘mdan sal oshiqroq. Oradagi tafovut sezilarli. Bu farqni 4 yilga ko‘paytirsangiz esa “tejalgan” mablag‘ yanada ko‘pdek tuyuladi. Yaqinda oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irov Sharipov “Lolazor” loyihasiga bergan intervyyusida davlat oliy ta‘lim muassasalari zarariga ishlayotgani, bitta talabani to‘layotgani kontrakt summasi uni, aslida, bir o‘quv yili o‘qitish uchun yetmasligini bildirdi. Shu tufayli bundan buyon kontrakt summalari bosqichma-bosqich oshirib borilishini ma‘lum qildi.

Jonibek ALIJONOV,

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

To‘lov-kontrakt miqdori oshirilishi talabalar hamda ota-onalar uchun “yomon” xabar, biroq uning bozor talablari asosida bo‘lishi yuqorida ta’kidlaganimiz o‘qishni ko‘chirishlar kamayishiga sabab bo‘ladi.

Ta‘lim sifati

Tibbiyot — murakkab soha. Uning taraqqiyoti xalq farovonligi, insonlar salomatligini saqlash, turli yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish hamda samarali davolashda muhim hisoblanadi. Ushbu soha mutaxassislarini bilimli qilib tarbiyalash esa oliy tibbiy ta‘lim muassasasi rahbar va ustozlari zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Ayniqsa, bu borada xalqaro hamkorlik va tajriba almashishning o‘rni beqiyos.

BILIMLAR MAS‘ULIYATI
BU BORADAGI XALQARO HAMKORLIK
VA ILG‘OR YONDASHUVLARMadaminjon MADAZIMOV,
tibbiyot fanlari doktori,
professor

Bugungi kunda Andijon davlat tibbiyot instituti xorijning yetuk tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Yildan yilga aloqalar doirasi kengayib bormoqda.

Joriy yilning may oyida Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan “Profilaktik tibbiyotda yuqori innovatsion texnologiyalarni qo‘llash” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.

Mazkur anjumanda Gretsiya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlaridan 50 dan ziyod olimlar hamda respublikamiz viloyatlaridan 200 dan ziyod shifokorlar ishtirok etdi. Bu, albatta, xorijlik mutaxassislarining institutimizga bo‘lgan qiziqishi va e‘tibordan darak, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Institutimiz dunyoning qator rivojlangan davlatlaridagi o‘nlab oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Ayniqsa, Rossiya Federatsiyasidagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorligimiz yangi bosqichga ko‘tarildi.

Ayni kunda institut Rossiya Federatsiyasi Privoljskiy nomidagi tibbiy tadqiqot universiteti bilan stomatologiya klinik ordinatura (1+1) yo‘nalishi, Dog‘iston davlat tibbiyot universiteti bilan stomatologiya bakalavriat ta‘lim (3+2) yo‘nalishida, shuningdek, Qozon federal universiteti, I.P.Pavlov nomidagi Birinchi Sankt-Peterburg davlat tibbiyot universiteti, Sankt-Peterburgdagi I.I.Mechnikov nomli Shimoliy-G‘arbiy davlat tibbiyot universiteti, V.A.Almazov nomidagi Milliy tibbiy tadqiqot markazi bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan.

2019-yilda Dog‘iston davlat tibbiyot universiteti bilan stomatologiya yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida tashkil etilgan 3+2 qo‘shma ta‘lim dasturi doirasida bugungi kunda 51 nafar talaba tahsil olmoqda.

Birgina joriy yilning o‘zida institutda Rossiya Federatsiyasi oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot markazlari, rossiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda “Profilaktik tibbiyotda yuqori innovatsion texnologiyalarni qo‘llash”, “Urologik kasalliklarni davolashga innovatsion yondashuv”, “Bolarlar jarrohligi xirurgiyasi muammolari” mavzularida xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi.

2023-2024-o‘quv yilida institutga rossiyalik 32 nafar olim va mutaxassis keldi. Katta tajriba va yuqori malakaga ega ana shu mutaxassislar tomonidan talaba hamda o‘qituvchilar uchun tibbiyotning dolzarb masalalari yuzasidan ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, mahorat darslari o‘tkazildi.

Institut professor-o‘qituvchilari, mutaxassislarining Rossiya Federatsiyasi oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot markazlarida tajriba va malakasini oshirish borasida ham e‘tiborga molik ishlar bajarilmoqda. Xususan, 2023-yil va joriy yilning o‘tgan davrida 45 nafar mutaxassisimiz Rossiyada malaka oshirib qaytdi.

Germaniya davlatining qator nufuzli oliy ta‘lim muassasalari hamda institutimiz o‘rtasida mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Iyun oyi avvalida bir guruh delegatsiya a‘zolari bilan birgalikda Germaniya Respublikasida xizmat safarida bo‘lib qaytdik. Unda Rostok universiteti rektori, professor Elizabet Prommer, Tibbiyot fakulteti dekani, professor Krauze va bo‘lim boshliqlari bilan uchrashuv o‘tkazildi. Do‘stona ruhda o‘tgan uchrashuvda ikki oliy ta‘lim muassasasi o‘rtasida ilm-fan va ta‘lim



sohasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, qo‘shma ilmiy faoliyat, ilmiy-tadqiqot ishlari, doktoranturani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Tibbiy yordam, diagnostika va davolashni rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar, innovatsion radiologiyani, xususan, urologik onkologiya, klinik radiologiya sohalarda mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish, Rostok universiteti klinikalarida malaka

oshirishni joriy etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Rostok universiteti klinikasi radiologiya bo‘limi rahbariyati bilan o‘tkazilgan uchrashuvda esa yangi innovatsion yo‘nalishlarni joriy etish bo‘yicha hamkorlikda ish olib borish masalasi muhokama qilindi. Unga ko‘ra, klinikaga onkologik kasalliklarni tashxislash va davolashning yangi zamonaviy usullarini joriy etish va o‘zlashtirish bo‘yicha fikr almashildi. Shuningdek, onkurologiya sohasida zamonaviy davolash usullarini qo‘llash, Rostok universiteti kasalxonasining yutuqlari asosida saraton kasalliklarini davolashda zamonaviy innovatsion maqsadli terapiyani ishlab chiqish va joriy etish, saraton bilan kasallangan bemorlarni samarali davolash uchun zamonaviy farmatsevtik preparatlardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqildi va ushbu sohalarini rivojlantirishga kelishib olindi.

Germaniyalik hamkasblar barcha turdagi professional yordam ko‘rsatish tashabbusini ma‘qulladi.

Mazkur safar doirasida Berlin shahridagi Xelios klinikasi va Andijon davlat tibbiyot instituti o‘rtasida mutaxassislarining Klinik onkologiya va radiologiya bo‘yicha malaka oshirishi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish yo‘nalishida hamkorlik qilish to‘g‘risida kelishib olindi.

maqsadli davolash usullarini joriy etish uchun Andijon davlat tibbiyot instituti klinik bazasiga germaniyalik mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolashga kelishib olindi.

Turkiya Respublikasining Karabuk universiteti bilan ham kelajakda o‘qituvchilar malaka oshirishi, talabalar almashinuvi, qo‘shma ta‘lim loyihalari masalalarida muhokamalar o‘tkazildi.

Biofizika sohasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Shu bilan birga Turkiyaning Hajettepe universiteti klinikasi bosh shifokori va kardiologiya sohasi mutaxassisi tomonidan institutimizda ma‘ruza va mahorat darslari o‘tkazildi.

Prezidentimizning Turkiya Respublikasiga oliy darajadagi tashrif doirasida amalga oshirilgan qator hamkorlik yo‘nalishlari doirasida yosh tadqiqotchilar uchun Turkiya universitetlarining doktorantura bosqichida tahsil olishi uchun joriy yildan stipendiyalar ajratilishi yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa mavjud hamkorliklarni yanada mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Yaqin kunlarda 15 nafar mutaxassisimiz Turkiyaning qator nufuzli oliy ta‘lim muassasalarida malaka oshirib qaytdi. Shuningdek, turkiyalik mutaxassislar institutimizga kelib, talabalarimizga mahorat darslarini o‘tmoqda.

2023-yilning sentabr oyida o‘tkazilgan O‘zbekiston — AQSH sog‘liqni saqlash haftaligi doirasida Uzbek American Medical Association (O‘zbek-Amerika tibbiyot assotsiatsiyasi), Amerikaning Pittsburg universiteti, CyberPatient rahbari bilan qator uchrashuvlar o‘tkazilib, hamkorlik memorandumlari imzolandi. Shuningdek, ushbu kelishuvlar asosida bugungi kunda amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Institutimizning ko‘plab mutaxassislari AQSHda malaka oshirib, o‘z bilimlarini boyitib kelmog‘da.

Gospital pediatriya kafedrasini mudiri Ma‘rifat G‘aniyeva AQSHning Rozalin Franklin tibbiyot va fan universitetida “Bolaradagi yuqumli kasalliklar va bolaralar immunologiyasi” yo‘nalishlarida malaka oshirish dasturlarida ishtirok etib qaytdi.

Institut magistranti Javohir Mahammatjonov AQSHdagi University Hospital of Brooklyn shifoxonasida magistrlik ilmiy ishi yuzasidan amaliyot o‘tab, bilimlarini yanada boyitib keldi.

Xalqaro hamkorlik ko‘lami va geografiyasi yildan yilga kengayib bormoqda. Jumladan, Hindiston bilan ham aloqalar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hindistonlik yoshlarning institutimizda tahsil olishga qiziqishi yuqori. Shu bois, mazkur mamlakatda yashovchi abituriyentlarga qulaylik yaratish maqsadida u yerda institutimizning vakolatli ofislari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Institutning qo‘shma ta‘lim va xorijiy talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i G‘ayratbek Soliyev Hindistonda o‘tkazilgan “India’s first MBBS Abroad Expo” xalqaro ko‘rgazmasida ishtirok etmoqda. Bu esa xorijlik abituriyentlarga institutimiz haqida batafsil ma‘lumot berish uchun yetarli qulayliklarni yaratmoqda.

Ushbu targ‘ibot tadbirlarini yana ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirish rejalashtirilgan.

elementlarni raqamlashtirishga o‘n yilini sarfladi. Domlanning ingliz tilida bemalol so‘zlashishini ko‘rib, ruhlanib ketadi odam. Ilm olishning kechi bo‘lmas ekan.

— Ushbu qo‘llanmamni ishlab chiqish, kimyoviy elementlarni raqamlashtirishda Oksford universitetining kimyo fani kitoblaridan foydalandim. Rus, ingliz tilidagi qo‘llanmamni ham o‘qib chiqdim. Bu jarayonda ingliz tilini yanada puxta o‘zlashtirdim. Ayrim tushumagan joylarim ham bo‘ldi, masalan, atamalar, ba’zi tushunchalar. Bunda Google dasturi menga qulaylik tug‘dirdi. Kun sayin taraqqiy etayotgan bugungi zamonda yangi texnologiyalar, ilmiy izlanishlarisiz hayotni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ochig‘i G‘ayrat bobo 76 yoshida ham axborot texnologiyalari sohasini egallagan, ingliz tilida kitoblar o‘qishi bizni hayratlantirdi. Ayniqsa, ta‘limni rivojlantirish xususida so‘z ketganda “Ta‘limda ishlayotgan pedagog izzatlab bo‘lmagisi, o‘quvchining qadriini o‘zinikidan ustun qo‘yishi kerak. O‘quvchi esa, kitob o‘qishda, ilm olishda xokisor bo‘lishi lozim. Shundaygina katta natijalarga erishishi mumkin”, degan so‘zlari kishini mulohaza qilishga chorlaydi.

Ha, G‘ayrat boboning ta‘limni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlari, ilm yo‘lida vaqtini ayamassligi biz — yoshlarga o‘mak bo‘lishga arziydi.

Xurshida NISHONOVA,
jurnalist

O‘ramizdagi odamlar

Boyovutlik G‘ayrat bobo Ummonqulov nafaqat axborot texnologiyalari sohasini egallagan, balki ingliz tilida ham bemalol mulohat qilib, kitoblar o‘qiy oladi. Shu yoshida ham tinim bilmaydi. U kimyo fanidan 10 dan ortiq dastur tuzib, elektron raqamli qo‘llanma yaratgan. Mendeleyev davriy jadvalidagi elementlarni raqamlashtirib, o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun har birining xususiyatlarini alohida ta’riflagan. Kompyuter sichqonchasini xohlagan kimyoviy element ustiga bossangiz, uning xossalari, ko‘rinishi, qaynash temperaturasi, ionlanish potentsiali, raqami yozuvda yoki ovozi holda namoyon bo‘ladi.

Hech qachon kech emas!
O‘rganishni maqsad qilganga yoshning ahamiyati yo‘q

Uning fikricha, qo‘llanmadan foydalangan o‘quvchi repetitor yordamisiz ham bemalol oliyogha kirish uchun tayyorlansa bo‘ladi. Hozir G‘ayrat bobo Ummonqulovning elektron qo‘llanmalaridan kimyo fani o‘qituvchilari ham foydalanmoqda. Chunki ushbu qo‘llanmalar mavzularni o‘quvchilar o‘zlashtirib olishi uchun ham oson, ham qiziqarli.

— Bugun davr jadal rivojlanyapti. Yangi-yangi kasblar, hunarlar paydo bo‘lyapti. Axborot texnologiyalarini o‘rganishni zamon talab qilmoqda. Bugun olimdan ishchigacha — barcha kompyuterni bilishi kerak, — deydi G‘ayrat Ummonqulov. — Har bir sohani raqamli texnologiyalar bilan qamrab olishimiz zarur. Hayotimizni raqamlar hamda virtual dasturlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, “O‘rganaman, bilim olaman” degan odamga vaqtning ahamiyati yo‘q. U 18 yoshda bo‘ladimi, 80 dami, o‘z



oldiga maqsad qo‘ydimi, o‘rganaveradi. Bunday odam hech qachon “Endi kech bo‘ldi”, demaydi.

G‘ayrat Ummonqulov institutni tamomlagach, 50 yil ta‘lim sohasida turli vazifalarda faoliyat yuritgan. Uzoq yillar oldin o‘zi ishlagan

1-maktabda tashabbus ko‘rsatib, kompyuter olib keltiradi va o‘quvchilarni shu sohaga yo‘naltira boshlaydi. Hozir juda ko‘p shogirdlari kimyo sohasini mukammal egallab, ayrimlari shifokor, ayrimlari nufuzli oliyoghlarda kimyo fanidan dars beradi. Ular orasida Germaniyada neyroxirurg bo‘lib ishlayotganlar ham bor.

— Boyovut sanoat kollejiya ishlaganimda Ma‘ruf Bahridinov ismli o‘quvchim 45-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida qatnashib, III o‘rinini olgan. Toshkent tibbiyot akademiyasiga imtiyozli asosda o‘qishga kirdi. Ayni paytda viloyatimizdagi ko‘zga ko‘ringan shifokorlardan. Ustoz uchun shogirdlar kamolini ko‘rish, yutug‘idan quvonib yashash — eng katta baxt. Qaysi muallimning umri mana shunday baxtga to‘lib-toshib o‘tayotgan bo‘lsa, bilingki, u umrini yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga sarflab adashmagan.

Muallim qo‘llanmalar yaratish, kimyoviy

Bir boʻlsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!



Muxtasar
TOJIMAMATOVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



va hatto egarlangan otlar egalarini sabr-toʻqat bilan kutib, quloqlarini tikkaytirib, qimirlatib-qimirlatib qoʻyadilar, ularning koʻzlarida olov shuʻlari oʻyin tushadi... Otlar begona oʻlkalar sari yoʻlga chiqishlari kerak, vaqt yaqinlashib kelardi...”.

Ulugʻ qirgʻiz adibi Chingiz Aytmatovning oʻzbek adibi, mutarjim Ibrohim Gʻafurov tarjimasidagi “Qiyomat” asarini oʻqir ekanisiz, ruhingiz yayraydi. Asar aslida, oʻzbek tilida yozilganday shuuringiz va qalbingiz puchmoqlariga singib ketadi. Balki shu bois, Chingiz Aytmatov oʻz vaqtida “Oʻzbekiston — mening jonim, mening yuragim. Bu maskanda ruhim va tanam nafas olib, orom oladi. Bu ajoyib xislatlar. Oʻzbekiston — madaniyat beshigi”, deya lutf qilgandir.

Shu oʻrinda bir savol tugʻiladi: nima uchun ustoz tarjimonlar Abdulla Qahhor, Mirzakalon Ismoilii, Ibrohim Gʻafurov, Yanglish Egamovanning tarjimalari juda ravon oʻqiladi? Ularning asarida badiiy goʻzallik juda yuksak ifodalangan. Qoʻllangan soʻzlar, maqol va iboralaridan rohatlanasiz. Keyingi yillarda tarjima qilinayotgan asarlar bilan avvalgi tarjimalarni taqqoslasangiz, yosh tarjimonlar ishida gʻaliz jumalarga koʻp duch kelasiz.

Tarjimaning YORUGʻ ISTIQBOLI

“Oy togʻlar uzra ancha havolab ketgandi. Butun yer uning yogʻdulariga choʻmib yotardi — oʻrmondagi daraxtlarning qora choʻqqilari tungi shamolda chayqaladi, daryo shaldiraydi, nam bosgan xarsangtooshlar kumushday jilolanadi, tun qushlari gulxan atrofida kuylayotgan odamlar ustidan sharpaday uchib oʻtadi



katta eʼtibor berilayotgani bejiz emas. Buning uchun cheksiz minnatdormiz. Chunonchi tarjimonlarning masʼuliyatli va sharafli mehnatini taqdirlash, qoʻllab-quvvatlash uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot taʼsis etildi. Bunday qutlugʻ qadam adabiyotimiz rivojiga katta ragʻbat beradi. Mumtoz adiblarimiz ichida Muhammadrizo Ermiyozbek oʻgʻli Ogahiy serqirra ijodkor. U ham ulugʻ shoir, mashhur muarrix, ham buyuk tarjimon sifatida yuqori mavqega ega. Ijodkor umrining koʻp qismida tarjima bilan band boʻldi. Bugun uning nomidagi xalqaro mukofot ulugʻ ajdodimiz ijodiy hayoti yana barq urib yashay boshlaganini anglatadi. Shu oʻrinda bir orzumni aytib oʻtishni istardim. Oʻzbek adabiyoti namunalari xoriijiy tillar, jumladan, sharq tillariga tarjima qilish va nashr

etish bilan maxsus shugʻullanadigan nashriyot ochilsa, adabiyotimizni targʻib etish koʻlami yanada kengayardi, deb oʻylayman.

Ustoz adibning taklifida jon bor. Milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalari boshqa tillarga tarjima qilish hamda shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini targʻib etish fursati yetdi. Buning uchun bizda tarjima sanʼatining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislar tayyorlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, muammolar ham yoʻq emas. Mutaxassislarning taʼkidlashicha, ayni paytda tarjima nazariyasi, asoslari, yoʻnalishlariga doir zamon talabiga mos tadqiqotlar, darslik va qoʻllanmalar, bevosita badiiy tarjimaga oid lugʻatlar yaratishda sustkashlik kuzatilyapti. Qolaversa, tarjima va tanqid faoliyati koʻngildagidek emas. Bu muammolarni hal etish uchun qilinayotgan ishlardan umidimiz katta. Xususan, tarjimashunoslik sohasiga kirib kelayotgan, badiiy tarjimaga koʻl urayotgan yoshlar qoʻllab-quvvatlanayotgani quvonarli hol. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan koʻplab universitetlarda boʻlib oʻtayotgan ilmiy anjumanlarda yosh tarjimashunos va mutarjimlarning faol ishtiroki fikrimizni tasdiqlaydi.

Tarjima tufayli adabiyot, umuman, xalqning madaniyati boyiydi, jahon adabiyoti xalq mulkiga aylanadi. Ikkinchidan, jonajon adabiyotimiz namunalari tarjima boʻlgan ellar adabiyoti xazinasini toʻldiradi. Uning xizmati nihoyatda begʻaraz va xolis. Bizning ulugʻ tarjimonlarimiz shu yoʻsin jahon adabiyoti durdonalarini ona tilimizga oʻgʻirib, xalqimiz mulkiga aylantirdi.



— Dunyoda soʻz degan moʻjiza bor ekan insonlar hayotida, qalbida adabiyotning oʻrni hech qachon yoʻqolmaydi, — deydi Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi, shoira, tarjimon Nargiza Asadova. — Adabiyot rivojlanishi, targʻib etilishida esa tarjimaning ahamiyati juda katta. Shu paytgacha biz jahon adabiyotining eng sara durdonalarini ustoz tarjimonlar Olim Otaxonov, Vafo Fayzullo, Usmon Qoʻchqor, Odil Ikrom ijodi orqali oʻqib, oʻrgangandik. Bugun ular safiga yosh tarjimonlar ham qoʻshilayotgani quvonarli. Ayniqsa, keyingi yillarda turkiy xalqlar oʻrtasidagi adabiy aloqalar kuchayib bormoqda. Jumladan, “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildli muhtasham toʻplam nashr etildi. Mazkur toʻplamga umumturkiy adabiyotning qadimgi davrlardan toʻ XXI asrning shu kunlariga qadar yaratilgan sara namunalari kiritildi. U turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor roʻyobga chiqarilgan yirik adabiy loyiha sifatida barcha qardosh, tildosh davlatlar uchun qadrlı ekani bizga gʻurur bagʻishlaydi. Shu jarayonda qatnashish menga ham nasib etdi. Rashod Nuri Guntekin, Nozim Hikmat, Aziz Nesin va Kamol Yashar, Hamza Oʻzbeki kabi turk yozuvchilari asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qildim. Jarayonda adabiy hamkorlikning qanchalar qadrlı ekaniga guvoh boʻldim. Chunki tarjimon oʻzga bir xalq asari oʻgirmasiga kirishar ekan, oʻsha xalq madaniyati, urf-odatları, turmush tarzidan boxabar boʻladi. Ayniqsa, asarning asl nusxasi bilan tanishuv ijodkor uchun keng imkoniyat. Chunki ijodkor tarjima usullarini oʻrganadi. Keyinchalik bu yozadigan asarlarida ham boʻy koʻrsatadi. Oxir-oqibat milliy adabiyotimiz yuksalishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan ham tarjimonlikni qoʻllab-quvvatlash katta hodisa deb oʻylayman.

Kuni kecha oʻzbek-qirgʻiz madaniyati kunlari doirasidagi davra subhatida Qirgʻiz Respublikasi madaniyat xodimi, Jahon adabiyoti

instituti direktori Nurlan Karlibekov tarjima sanʼatini moʻjiza yaratish imkoni, deb atadi. Uning taʼkidlashicha, tarjima faqat soʻzlarning maʼnosini emas, ifodadagi inja tuygʻularni ham yetkazib bera olsa, chinakam moʻjizadir.

— Oʻzbek va qirgʻiz adabiyotida mutarjimlik aloqasi sust edi, — deydi Nurlan Karlibekov. — Koʻp sohalar kabi adabiy aloqalar oq-sab, bordi-keldi uzilib qoldi. Lekin yaqin yillardan oʻzbek birodarlarimiz bilan adabiy hamkorlik yoʻlga qoʻyildi. Ayniqsa, Oʻzbekistonda “Turkiy adabiyot durdonalari” chop etilgani nihoyatda quvonchli voqea boʻldi. Bilasizmi, shu paytgacha ham oʻzbek adabiyotidan qirgʻiz tiliga tarjima qilingan asarlar bor edi. Biroq ularda mutarjim mahorati yetmagan joylar koʻzga tashlanardi. Masalan, Oʻzbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf sheʼrlarini qirgʻizchaga oʻgʻirishdi. Lekin shoir tilidagi shira, sheʼrdagi latofat toʻlaligicha qirgʻizchaga koʻchmadi. Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” asari turk tiliga yana bir bor tarjima qilinganini eshitib xursand boʻldik. Ammo tarjima ikki tildan, yaʼni avval rus, keyin fransuz tilidan olinib, tarjima qilingan. Bir turk professori — birodarimiz qirgʻizchani oʻrganib, “Qiyomat”ni oʻqib aytidiki, rus va fransuz tilidan olib oʻgʻirilgan asar bilan asliyatdagingin farqi yer bilan osmoncha ekan. Aytmoqchimaniki, bizda mohir tarjimonlarga ehtiyoj bor.

Qardoshimizning taʼkidlashicha, oqinlar uchun oʻtkazilayotgan koʻplab festival va yigʻinlar ichida tarjimonlar uchun ham mahorat darslari, maxsus uchrashuvlar oʻtkazilishi kerak. Bir-birimizga toʻn kiydirib, mehmon qilib, tadbir oʻtkazib yurgan bilan natija boʻlmaydi. Har yili oʻnlab asarlar tarjimasini yoʻlga qoʻyish zarur. Nurlan Karlibekov ham yaqinda “Alpomish” dostonini tarjima qilishni rejalashtirgan. Atqoli tarjimon Zuhridin Isomiddinov bilan bu borada maslahatlashish va hamkorlik qilish niyatida.

Koʻzgu

— E, keling, keling, qoʻshni. Siz ham pensiya olgani chiqdingizmi deyman... Hozir kep qolishadi, tez navbatga yozilib qoʻying. Lekin shuni kechiktirmay, oʻz vaqtida, mahalla qoʻmitasida berayotgani ajoyib ish boʻldi-da. Aytganday, siz pensiyani plastikda olayotuvdingiz shekilli?

— Ariza yozdim, naqd olmoqchiman. Jamolini koʻrib, qoʻl bilan ushlab, yoningda olib yurishning gashiti boshqacha-da, — deydi ikkinchi qoʻshni hazil ohangida.

— Ha, sehrli narsada, pul degani. Oʻzi bir parcha qogʻoz boʻlsa ham odamlarning koʻzini boylab tashlaydi. Ayrimlar uchun pulning taxlami qancha koʻp boʻlsa, shuncha ruju qoʻyishi ham gʻalati.

— Hozir “Ishingni bitirib beraman”, degan usul avjida. Unda, ayniqsa, mansab-martabali kishilar juda faol... Hali bir tuman hokimi yoki unga oʻrinbosari, hali advokat deysizmi, prokuror deysizmi, shifokor, bank xodimlari deysizmi — barchalari hoziru nozir. Qoʻrquv bilmaydi, charchash bilmaydi, uyat-ku, umuman, bu ishga aralasholmay garang. Ular bamiislo poyga oʻynayapti kim qancha pora olishda.

— Mana, hozir ijtimoiy tarmoqda tarqalgan shu mavzudagi xabarni oʻqib beraman. Eshiting: 2024-yilning birinchi 6 oyida 2389 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bu haqda Oʻzbekiston Respublikasi Bosh

OR-NOMUS, VIJDONNI SOGʻLIQ KABI ASRAMOQ KERAK

(felyeton)



beradigan kerakli parollarni sherigiga olti yarim ming dollar evaziga topib bergan ekan, shundan ham ayrildi. Qoʻlga tushibdi. — Bermasin edi parollarni. — Endi uning ham oyligi yetmayotgan boʻlsa kerak-da...

— Bankdagilarning oyligi yaxshi deyishadiku!

— Ha, endi “yaxshi oylilik” deganda ularning oʻz oʻlchamlari bor-da.

— Qarang, bir kishi plastigidan katta miqdorda pul yechilgani haqida tegishli

xizmatga murojaat qilsa, falon soʻm bersang topib beraman, deb shart qoʻyibdi... Firibgarini topib berish uchun pora soʻrashlarini qanaqa tushunish mumkin?

— Bularni hozir bemalol yozishyapti, koʻrsatishyapti. Ilgari deydari aytishmasdi bularni. Yo ilgari kam boʻlganmi bunaqa narsalar...

— Ilgari ham boʻlgan, faqat boʻlishishgan boʻlsa kerak. Shuning uchun koʻp ishlarda yopigʻliq qozon yopigʻligicha qolgan. “Arra” qilmaydiganlar koʻpayganmi, oʻshalarini koʻrsatyapti, menimcha...

— Firibgarlikning ham turi koʻp ekan-da. Kechagi yigʻilishimizda mahalla raisi ogohlantirdi. Hozir yularga kirib, men falon tashkilotdanman, deb bir nimalarga qoʻl qoʻydirib, bizga oʻxshab oʻqimagan pensio-nernlarning plastik raqamini bilib olishayotgan ekan. Vijdoni qiynalmasmikin-a, shunaqalarni?

— Qiziqsiz-a, qoʻshni. Menimcha, vijdon, imondan gapirsangiz, hayron boʻp qolishsa kerak ular, bu nima ekan deb...

Otam bolaligimizda oʻqi-oʻqi, deb urishganida quloq solmagam ekanmiz. Oʻqituvchilarimiz ham, bechoralar, qancha kuyib-pishib oʻrgatardi... Ha, endi bilimli, dunyoqarashi keng, haq-huquqini

yaxshi biladigan kishilarni firibgarlarning ijtimoiy tarmoqlardagi tuzoq eʼlonlari-yu, eshik qoqib keladigan har qanday loʻttivozu firibgar alday olmaydi-da.

— Oʻzimiz ham qiziqmiz-da, qoʻshni. Tekin mahsulot tarqatsa, ayniqsa, yoshlar bir-birini urib-talashib yopishadi. Bir notanish kimsa plastigginga pul oʻtkazaman desa, hamma maʼlumotlarni yozib beramiz. Noqonuniy ishni qogʻozda qonuniylashtirib beraman, deb pora berib, pora olishadi. Korruptsiyaga qarshi agentlik ular bilan kurashgani kurashgan.

— Bir hikmatni oʻqigandim. Hayotda koʻp ishlar qila olmagani boʻlishingiz mumkin. Ammo umr boʻyi oʻz vijdoningizga biror marta ham qarshi bormasangiz, eng koʻp savobni, ezgu ishni siz qilgan boʻlasiz.

— Toʻgʻri aytasiz, shu vijdon, or-nomus, imonni xuddi sogʻliq kabi asrash kerak ekan. Ana shunda jamiyatimiz bunaqangi illatlardan tozalanadi...

— E-e, qarang, pensiyani ham obkeshildi. Oʻting-oʻting...

— Yoʻq-yoʻq, oʻzlaridan boʻlsin...

Qoʻshnilar suhbatini Rustam BOYTOʻRA yozib oldi.